

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LUG'ATLARIGA BO'LGAN
EHTIYOJ****Kojalepesova Perizat Azatovna****Nukus davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy-gumanitar
fanlarni masofadan o'qitish kafedrası****ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-5451-5074>****E-mail: kojalepesovaperizat@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17830054>**

O'quv lug'ati paydo bo'lganidan beri leksikograflarni uning alohida leksikografik janr sifatida ajratib turadigan xususiyati, tasnifiy belgilari masalasi qiziqtirib kelgan. Bu savolga birinchi marta S.G.Barxudarov va L.A.Novikovning 1971-yilda nashr etilgan "O'quv lug'ati qanday bo'lishi kerak?" deb nomlangan maqolasida javob beriladi. Keyinchalik, 1974-yilda, L.A.Novikovning "Russkiy yazık v natsionalnoy shkole" jurnalining birinchi sonida bosilgan "O'quv lug'ati, uning spetsifikasi va turlari" deb nomlangan maqolasida o'quv lug'ati spetsifikasi va uning asosiy turini ajratish masalalari yoritilib beriladi. Shuningdek, jahon o'quv leksikografiyasi nazariyotchilari J.Dyubua, G.Matore, Y.Malkil, P.N.Denisov, V.V.Morkovkin, V.G.Gak, M.A.Skopina va boshqalarning ishlarida ham ushbu masala to'liqroq yechimini topadi.

Ko'pchilik nazariyotchilar o'quv lug'atini katta, akademik lug'atga qarama-qarshi qo'yadi. Biroq, S.G.Barxudarov aytganidek, bu ikki tipdagi lug'atni bir-biridan keskin ajratib bo'lmaydi. Ular bir-birini talab qiladi. Masalan, akademik izohli lug'at - o'quv izohli lug'at, ideografik lug'at - mavzuli o'quv lug'at, katta sinonim lug'at - sinonim o'quv lug'at kabi. Lug'at yaratish tarixida ko'plab o'quv lug'atlarining shu nomdagi katta lug'at negizida yaratilgani ham kuzatiladi. V.G.Gakining fikricha, o'quv lug'ati shu tipdagi katta lug'atning oddiy kichraytirilgan nusxasi bo'lmashligi kerak. O'z tabiatiga ko'ra o'quv lug'ati (darslik, qo'llanmadan farqli ravishda) tilni u yoki bu darajada biladigan foydalanuvchi uchun shunday bir maxsus o'quv quroli bo'lishi kerakki, u maksimal darajada o'quv maqsadini qondira olishi kerak, lekin shu tipdagi katta lug'atni takrorlamashligi lozim, ya'ni uning o'rnini bosishi shart emas, aks holda u o'ziga xosligini yo'qotadi.

O'quv lug'ati tavsifi uning o'ziga xos xarakterli xususiyatiga asoslanadi. Birinchidan, u o'z oldiga cheklangan hajmda katta - o'qish (til o'rganish, ta'lim bosqichi, o'quvchining bilim darajasiga ko'ra toifalari, tilni bilish darajasi va boshqalar) vazifasini bajarishni qo'yadi. O.S.Axmanovanning fikricha, leksikografiyada bunday "cheklangan hajm" va "ulkan maqsad," ya'ni "yetuklik" va "ta'lim berishga yo'naltirilganlik" talabi nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga mos kelmaydi. O'quv lug'atining muhim ko'rsatkichi - bu lug'atning maqsadli tanlanishi va uning metodik jihatdan asoslangan miqdoriy chegaralanishi bilan o'lchanadi.

Hali o'quv leksikografiyasi nazariyasi to'liq shakllanmagan davrda ham kichik lug'at mavjud bo'lgan, uning hajmi mutaxassislarning e'tiborini tortib kelgan. Masalan, E.D.Polivanov, yuqorida aytib o'tilganidek, o'z lug'atining ixchamligiga e'tibor qaratib, lug'atga yozgan so'z boshida "hajmiga ko'ra spravochnik lug'at deb bo'lmaydi, uni o'quv lug'ati toifasiga kiritish o'rinli", desa, L.V.Shcherba "barcha ixcham lug'at vazmin odamlar uchun oxir-oqibat g'azabni keltirib chiqaradi, chunki ba'zida aynan kerakli so'z topilmay qolishi mumkin. Katta lug'at esa boshlovchi (til o'rganuvchi, ta'limning quyi bosqichidagi o'quvchi - B.B.) uchun noqulaylikni keltirib chiqaradi, chunki katta lug'atdan kerakli so'zni izlab topish ancha vaqtni oladi. Mana shu yerda o'quv lug'atining zarurati sezilib qoladi," deydi.

L.A.Novikov esa leksikografiyaning bu sohasini..."ko'lam jihatidan kichik va katta ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan leksikografiya," deb tavsiflaydi.

Keyinchalik o'quv lug'atining nazariy asosini shakllantirish jarayonida hajm masalasi kun tartibiga qat'iy qo'yiladi. S.G.Barxudarov va L.A.Novikovning "Lug'atni tanlash va o'quv lug'atlari hajmi" deb nomlangan maqolasida lug'at turidan kelib chiqib, o'quv lug'ati 3000 dan 50 000 gacha so'zni qamrab olishi mumkinligi aytiladi. Maqolada R.M.Bakaya lug'at fondi miqdori bu tipdagi lug'atda 2800, A.F.Kolesnikova 3000 atrofida bo'lishini, D.E.Rozental 9000-12 000 so'z, V.G.Gak 8000-10 000 so'z, B.A.Lapidus 10 000-11 000 so'zdan iborat bo'lishi, S.G.Barxudarov va L.A.Novikov esa o'quv izohli lug'at, B.A.Lapidus retseptiv tipdagi asosiy ikki tildagi o'quv lug'at fondi 25 000 gacha so'zdan iborat bo'lishi, P.N.Denisov o'quv izohli lug'at fondining optimal miqdori 50 000 gacha bo'lishi mumkinligini aytib o'tadi.

Maqola mualliflari jahon o'quv leksikografiyasi amaliyotida katta o'quv lug'ati fondi miqdori 25 000 tagacha so'zni o'z ichiga olishi kuzatilishini aytib o'tadi va P.N.Denisovning fikriga (50 000 ta so'zni qamrab olishi) e'tiroz bildirib, "bunday katta hajmli o'quv lug'ati kerakmi, bunday lug'atni o'quv lug'ati deb hisoblash mumkinmi, bu o'quv lug'ati chegarasini belgilashda noaniqlikni keltirib chiqarmaydimi?" degan savolni qo'yadi va bahsli fikrga xulosa yasab, o'quv lug'ati nafaqat kichik yoshdagi bola uchun, balki oliy ta'lim muassasasi talabasi uchun ham yaratilishi, qolaversa, tarjima lug'atlar, izohli lug'atlarni hajm jihatidan chegaralash lug'atdan amaliy foydalanish samaradorligini pasaytirishini aytib o'tadi. Lug'at tuzishning bosqichma-bosqich rivojlanishi haqida gap ketar ekan, aksariyat o'rinlarda tarjima lug'ati - lingvistik lug'at - ensiklopedik lug'at - ta'limiy (o'quv) lug'at - elektron lug'at ketma-ketligi keltiriladi. Jahon tilshunosligida lug'at yaratish tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar lug'atning dastlabki ko'rinishlari ta'limiy maqsadda yaratilgani - ilk lug'at namunalari aslida maktab uchun yaratilgan qadimgi o'quv qo'llanmalari bo'lganini, aniqrog'i, qadimgi maktabda lug'at darslik vazifasini o'taganini ko'rsatmoqda.

Tilshunoslikda kuzatilgani kabi o'zbek tilshunosligida ham dastlabki lingvistik manbalar lug'at ko'rinishida yuzaga kelgan bo'lsa-da, nazariy leksikografiyaning shakllanishi uzoq tarixga ega emas. Xo'sh, turkiy lug'at tuzish, jumladan, o'zbek lug'ati ildizi qaysi davrga borib taqaladi? Yevropada bo'lgani kabi dastlabki turkiy lug'atlarni ham o'quv lug'ati nuqtayi nazaridan tushunish mumkinmi?

Ma'lumki, O'zbekistonda leksikografik tadqiqotlar XX asrning 60-yillaridan boshlanadi. Bunda Sh.Fayzullayeva, N.Rasulov, K.Muhiddinov, E.Umarov, X.Fattohov, T.Qodirov, M.Ziyoyeva, G'.Abdurahmonov, S.Mutallibov, A.Hojiyev, Sh.T.Rahmatullayev, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov, A.Madvaliyev va boshqalarning xizmati katta bo'lgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 484 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi PQ-4479-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori // "Ma'rifat" gazetasi. – Toshkent, 2019 yil 5 oktyabr. – №77.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // www.lex.uz
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. (O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq) // "Xalq so'zi" gazetasi. – Toshkent, 2019. – № 218.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 126 b.
7. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot... Ta'lim taraqqiyoti. 1-maxsus son. T.: 1999. 59-b. –B.303